

SABZI SELEKSIYASIDA QO'LLANILAYOTGAN AGROTEXNIK TADBIRLARNI O'RNI

Ahmadov Qosimjon Furqat o'g'li
Bekmirzayeva Gulhayo Mirzohidjon qizi
Bektemirov Samandar O'lmasbek o'g'li

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
Andijon tumani Oliygo'chasi 1 uy*

Annotatsiya: *Mamlakatimizda barcha sohalarda bo'lgani kabi qishloq xo'jaligida ham tub islohotlar amalga oshirilmogda. Jumladan, hozirgi kunda sabzi ekiniga bo'lgan talab xam ortib bormogda, biz o'z tajribamizda sabzi ekinini yetishtirish bo'yicha yuqori agrotexnik tadbirlar o'tkazib, qo'shimcha xosildorlig xisobiga gektaridan jami 3,5-4 mln so'm xarajat qilinishini hisobga olganda sof foyda 26-26,5 mln so'mni tashkil etdi.*

Kalit so'zlar: *sabzi, urug', ksilema, floyema, ildiz, barg, o'g'it.*

Аннотация: *В нашей стране, как и во всех сферах, в сельском хозяйстве проводятся радикальные реформы. В частности, растет спрос на посеы моркови и прибыль составила 26-26,5 млн. сумов на каждый гектар.*

Ключевые слова: *морковь, семена, ксилема, флоэма, корень, лист, удобрение.*

Annotation: *In our country, as in all spheres, radical reforms are being carried out in agriculture. In particular, the demand for crops of carrots is growing and the profit amounted to 26-26.5 million soums per hectare.*

Key words: *carrot, seeds, xylem, phloem, root, leaf, fertilizer.*

Sabzi (*Daucus*) – soyabonguldoshlar oilasiga mansub ikki, qisman bir yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, sabzavot ekini. Sabzining 60 dan ortiq turi bor. Bir turi (*D. carota*) – madaniy sabzi ekiladi. Bu tur G'arb (O'rta yer dengizi havzasidan kelib chiqqan 4 turxil – karotinli, sariq, oq, binafsharang sabzilar) va Osiyo (Afg'oniston va unga yaqin hududlardan kelib chiqqan 6 tur xil – sariq, binafsharang, qizil, to'q binafsharang, ushti, oq sabzilar) kenja turiga bo'linadi.

Sabzi ikki yillik o'simlik bo'lib, birinchi yili uzun bandli, patsimon taralgan barglar va etli ildiz meva hosil qiladi. Ildizmeva o'zak (ksilema – yog'ochsimon qismi), kambiy (floyema–zaxiramoddalar to'plangan qismi) va tiniq rangli po'stdan iborat. O'zak dag'al, yog'ochsimon, shakari kam bo'lgani uchun ta'msizligi bilan kambiydan farq qiladi.

Sabzi gullari ikki jinsli, mayda gultojibargi oq yoki pushti, beshlik tipida. Gullari chetdan changlanadi. Sabzi guli hasharotlar (asalarilar, pashshalar) kam hollarda shamol yordamida changlanib, ikkinchi yili urug'lanadi. Katta mevali navlari uchrab turishiga qaramay, sabzi asosan og'irligi 40 gr dan 400 gr gacha va uzunchoq sharsimon shaklda bo'ladi. Sabzining bargi soyabon ko'rinishida, rangi esa qizil, sariq va

oqranglarda bo'ladi. Bargining markazida qizil gul turadi. Sabzi turli xil foydali elementlarga, ya'ni pantotenli va askorbinli kislota, shakar, flavonoid, V guruhidagi vitaminlar hamda likopinga boy sabzavotdir. Sabzi tarkibida karotin miqdori ko'p, doimiy iste'mol qilinganda ko'z nurini yaxshilashga yordam beradi.

Iqtisodiy samaradorligi O'zbekiston sharoitida sabzidan o'rtacha 150 ts/ga hosil olinadi. Hozirgi kunda bozorlarda sabzi narxi o'rtacha 2000 so'm bo'lsa, o'rtacha umumiy daromad 30 mln so'mni tashkil etadi. 1 ga maydonga quyidagi miqdorda xarajat ketadi: 1 ga yer haydash uchun 35 l yoqilg'i sarflanadi (1l yoqilg'i 10000 so'm) jami 350000 ming so'm. Haydovchi ish haqi 50 ming so'm. 1ga mola bosish uchun 15 l yoqilg'i sarflanadi (1 l yoqilg'i 10000 so'm) jami 150000 so'm; 1 ga baranalash uchun 10 l yoqilg'i sarflanadi (1 l yoqilg'i 10000 so'm) jami 100000 so'm, haydovchi ish haqi 50000 so'mni tashkil etadi; 1 ga egat olish uchun 15 l yoqilg'i sarflanadi (1 l yoqilg'i 10000 so'm) jami 150000 so'mni tashkil etadi; o'rtacha 1 ga yer uchun 7 kg sabzi urug'i sepiladi (1kg urug' 80 ming so'm) jami 560 ming so'mni tashkil etadi; urug' sepish xarajati 500 ming so'mni tashkil etadi. Mineral o'g'itlar: fosforli o'g'it 200 kg sarflanadi (50 kg o'g'it 25 ming so'm) jami 100 ming so'mni tashkil etadi; kaliyli o'g'it 100 kg sarflanadi (50 kg o'g'it 50 ming so'm) jami 100 ming so'm; azotli o'g'it ikki marta berilib, 300 kg sarflanadi (50 kg o'g'it 50 ming so'm) jami 300 ming so'mni tashkil etadi; gerbetsitlar 1 ga yerga 100 ming so'mni tashkil qiladi; sabzini birinchi va ikkinchi o'toq qilish xarajati 500 ming so'mni tashkil etadi; sug'orish, 5 marta sug'oriladi, jami xarajati 150 ming so'mni tashkil etadi; hosil yig'im-terimi, jami xarajati 300 ming so'mni tashkil etadi. 1 ga maydonga jami 3,5-4 mln so'm xarajat qilinishini hisobga olganda sof foyda 26-26,5 mln so'mni tashkil etadi.

Kuzda PN-4-35 pluglari bilan tuproq 30-35 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Ekish oldidan yer tekis, yumshoq va kesaklar maydalangan bo'lishi uchun baranalani, so'ng mola bosiladi. Sabzi urug'i iliqroq suvga 4 soat ivitiladi, so'ngra ivigan urug' qum yoki kulga aralashtirilib, siyrak qilib sepiladi va ustiga xaskash yordamida yupqa qilib tuproq tortiladi.

Eslatma! Urug'ni intensiv rivojlantirish yo'lini ham qo'llash mumkin. Bunda mato issiq (+50 gradus)da suvda qizdirib olinadi va urug' o'rab qo'yiladi. 20 daqiqa o'tgandan so'ng urug' toza suvga solib tindiriladi. Bu tajribadan o'tgan va sinalgan usuldir.

Ba'zi bir dehqonlar sabzini tez va samarali o'stirishning boshqacha usullarini o'sish parametrini "Epin" ekstra eritmasi yordamida tezlashtirishni qo'llaydilar. Bu eritmada sabzi urug'ini bir kun davomida saqlash kerak. Eritmani tayyorlash uchun 100 gr suvga 4-5 tomchi eritma solinadi.

Barcha tayyorgarlik ishlaridan keyin sabzi ekishni boshlashingiz mumkin. Bu qiyin emas, boshqa sabzavot ekinlari kabi oddiy jarayon. SHunday bo'lsada, sabzi ekishning ba'zi o'ziga xos xususiyatlari ham bor.

1-qadam. Tekislangan tuproqda chuqur bo'lmagan ariqchalar olish kerak.

Buning uchun kichik tayoqcha yoki boshqa shunga o'xshash ingichka asbobdan foydalanish lozim. Oralig'i 2-3 sm, chuqurliklari 20 sm dan oshmaslik kerak.

2-qadam. Oldindan tayyorlanib namlangan sabzi urug'ni kaftga olib, tayyorlangan chuqurliklarga to'g'ri taqsimlash lozim. Agar urug'lar qalin tushib ketsa, o'sib chiqqandan keyin yagana qilinadi.

Sabzining ildizi yaxshi rivojlanadi, tuproqqa chuqur qadaladi, bargi unchalik katta emasligi tufayli suvni ko'p bug'lantirmaydi. Sabzi tuproqning biroz chuqur qatlamidan nam tortib olish qobiliyatiga ega. Sabzi parvarishi qatororalari 3-4 marta ishlash, 1-2 marta chopiq qilish, begona o'tlarga ayniqsa zarpechakning urug' hosil qilishiga yo'l qo'ymaslik, 5-7 marta sug'orish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishdan iborat.

Yurtimiz sharoitida sabzi ko'klamda, kuzda va yozda sepiladi.

Ayrim, ya'ni ko'klam qurg'oqchil kelgan yillardagina urug'ning unib chiqishini tezlashtirish maqsadida urug' suvi beriladi. Dastlabki paytlarda ekin har bir yarim-ikki haftada, mayning ikkinchi yarmidan e'tiboran, ya'ni ildizmevalar jadal sur'atda kattalashayotganda esa har 7-8 kunda sug'oriladi.

Sizot suvi chuqur joylashgan yerlarda ertagi sabzi o'suv davrida 8 marta, sizot suvi yuza dalalarda esa 5-6 marta sug'oriladi. Sabzi mana shu tartibda sug'orib borilsa, sizot suvi chuqur joylashgan yerlarda mavsumda 11-12 marta, sizot suvi yuza

maydonlarda 6-8 marta suv ichadi. Sabzi hosildorligini oshirish uchun, yaganalash jarayonini kechiktirmaslik lozim. Har bir sabzi qatorining oralig'i 30 sm dan kam bo'lmasligi, oraliq masofasi 10-15 sm kam bo'lmasin. O'simlikda 1-2 chinbarg paydo bo'lganda 1-o'toq va yagana, undan 2 hafta o'tgach, 2-o'toq va yagana o'tkaziladi. Sabzi 1-yaganalashda 2-3 sm, 2- sida esa 5-7 sm oraliqda bo'lgani maqsadga muvofiq bo'lib, shu qoidaga rioya etilsa, tekis va bozorbop hosil olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H.Ch. Bo'riyev Sabzavod ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi. Toshkent mehnat 1999 yil.
2. Zuyev V.I., Abdullayev A.G. Sabzavod ekinlri va ularni yetishtirish texnologiyasi. O'zbekiston 1997.
3. Yunusov S.A., Abdiyev Z.T. Issiqxolarda sabzavod ko'chatchiligi Toshkent Shafolat nur fayz 2020.